

## TO‘RTKO‘L TUMANIDAGI AYRIM GIDRONIMLARINING TASNIFLANISHI

**Kamolov Azizbek**

*Ajiniyoz nomidagi NDPI*

*1-bosqich doktoranti*

**Annotatsiya:** Bu maqola To‘rtko‘l tumanidagi ayrim gidronimlari tasnifiga bag‘ishlangan. Bu maqolada, mazkur hudud gidronimlari onomastik-morfologik xususiyatlariga ko‘ra tasniflangan.

**Kalit so‘zlar:** Gidronim, okean, dengiz, suv inshooti, ko‘l, soy, arna, jilg‘a.

Barcha suv inshootlari va ob‘ektlarining nomlari gidronimlar deyiladi (yunoncha «hidro» - suv, «onim» - nom). Dunyodagi okean, dengiz, ko‘l, soy, arna, jilg‘a, quduqlarning har biri suv ob‘ekti hisoblanadi. Sayyoramizda dastlabki hayot ham suvda, okeanda va dengizlarda paydo bo‘lgan degan ba‘zi qarashlar mavjud. Dastlabki aholi yashaydigan joylar ham suv bo‘ylarida paydo bo‘lgan. Toponimikaning suv ob‘ektlariga qo‘yilgan nomlar va ularning kelib chiqishi tarixini, nomlanish qonuniyatlarini o‘rganadigan sohasi gidronimika deyiladi.

Qoraqalpog‘iston respublikasi gidronimlari mintaqaning tabiiy sharoiti, tarixi, iqtisodiyoti va jamiyat rivojlanishi bilan birga chambarchas bog‘liq holda rivojlangan. Shu sababdan respublikada joy nomlari orasida gidronimlar (gidro – suv, onim - nom, ism) ko‘pligi va ixtisoslashuvi bilan alohida o‘rin tutadi. E.M.Murzayev shunday qayd qilgan: «gidronimlar vaqt eroziyasiga kam duchor bo‘ladi, qadimiy, shu sababdan asl shakli va mazmunini tiklash ancha qiyin bo‘lgan toponimlar guruhiga kiradi. Gidronimlarning bu o‘zgacha xususiyati geograflar va tarixchi, tilshunoslarda juda katta qiziqish uyg‘otib, ularga uzoq o‘tmishga nazar tashlash imkoniyatini beradi».[1.45] Toponimshunos olimlar gidronimlarni eng qadimiy toponimlar deb hisoblashadi. Haqiqatdan ham shunday. Quyida janubiy Qoraqalpog‘iston hududida joylashgan To‘rtko‘l tumanining ayrim gidronimlarni talqini beriladi.

Aslida O‘zbekcha so‘z To‘rtko‘l (rus. Turtkul), var. dortkul, Tortkul, ba‘zi olimlarning noto‘g‘ri ta’kidlashicha, ko‘l emas, balki qadimgi turkiy "to‘rt" va "kul" xarobalaridan kelib chiqqan. Qarang: qadimgi turk tortkil - " to‘rtburchak."E. M. Murzayevning lug‘atida "o‘simlik jinslaridan tashkil topgan, alohida tepalik yoki tepalik bilan baland ko‘tariladigan va asosiy plato va boshqa balandliklardan ajralib turadigan tekis stol qoldiqlari"deb tushuntirilgan; tuproq devorlari, qadimgi qal’alar qoldiqlari, Turon tekisliklaridagi shaharcha. Ushbu so‘z toponimik obyektlarning nomi sifatida Qozog‘istonda Tortkul, Sulutortkul va boshqalarda, Qirg‘izistonda To‘rtkul suv omborida, Qoraqalpog‘istondagi shahar va tumanda uchraydi.[2.3]

To'rtko'l Amudaryoning o'ng sohilida o'rnashib olgan mustamlakachi rus harbiylari tomonidan qadimgi To'rtko'l qishlog'i o'rnida 1873-yil 13-avgustda qal'a sifatida barpo qilingan va rus podsholari sharafiga Petro-Aleksandrovsk deb nomlangan. Shahar qurish uchun xon devonbegisi Matniyoz (Muhammad Niyoz)ga qarashli yerlarning 3227 tanobi (Amudaryo sohilidan 12 chaqirim narida) tortib olingan. Shahar qat'iy plan asosida to'rtburchak (to'rt gul — kvadrat) shaklida qurilgan (To'rtko'l nomi shundan). Mahalliy rivoyatlardan birida shahar nomi "Durgil" forsiy "Durri gil" — serhosil, oltin tuproq ma'nosida talqin etiladi. Shaharda rus harbiy qo'shinlari joylashgan, strategik jihatidan qulay yerdagi bu shahar podsho Rossiyasi tomonidan Sirdaryo viloyati Amudaryo bo'limining siyosiy-ma'muriy va harbiy boshqarmasi qarorgohiga aylantirildi.[3.2].Bundan tashqari mahalliy aholi To'rtko'l so'zi etimologiyasi haqida ushbu hududda to'rtta yirik ko'llar mavjudligini aytishadi.Quyida Qoraqalpog'iston respublikasi To'rtko'l tumanidagi ayrim gidronimlarning talqini berilgan.

Suvyorgan, So'kkili, Jumaketgan, Tozako'l, Qamishli, Ayritom ko'llari, Oqboshli, Sho'roxonyop, Yonboshqala, Arazqal'a, Amirobod, Bitleu, Bo'zyop, Beton kanallari mavjud. Boshqa toponimlar kabi gidronimlar ham o'ziga xos onomastik-morfologik xususiyatlarga ega. Shundan kelib chiqib, mazkur gidronimlarini sodda, qo'shma, birikmali turlarga bo'lib o'rganish o'rinli ko'rindi.

**1. Sodda gidronimlar.** O'zbek tili grammatikasida: tarkibida bitta o'zak morfemasi bo'lgan so'z sodda so'z [Y'FTG, 1975] deyilgan. Shu ta'rifni gidronimlarga ham umumlashtiradigan bo'lsak, bitta o'zak morfema yoki bitta o'zak morfema va qo'shimchalardan tarkib topgan gidronimlarni *sodda gidronimlar* deyishimiz mumkin. Sodda gidronimlar ham, toponimlar va antroponimlarning sodda turi kabi bir o'zak morfemadan iborat gidronimlardir. Bular To'rtko'l tumanidagi quyidagi ayrim gidronimlarni o'z ichiga oladi.

*Qamishli* ko'li, *Oqboshli*, *Bitleu*, *Beton* kanallarini misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

**2. Qo'shma gidronimlar.** Ikki va undan ortiq tarkibiy qismlardan tashkil topgan gidronimlar qo'shma gidronimlar deyiladi. Bular qo'shib yoziladi, bir urg'u bilan aytiladi.

2.1 Jumaketgan, Tozako'l, Sho'roxonyop, Yonboshqala, Arazqal'a, Amirobod Bo'zyop shular jumlasidandir. *Ko'l* gidronimik indikatorli qo'shma gidronimlarga *Tozako'lni* va antroponimik gidronimlarning nomlanishiga asos bo'lgan gidronimlar *Jumaketgan*, *Amirobod* kanallarini misol tariqasida keltirish mumkin.

*Yop* (anhor,ariq) gidronimik indikatorli qo'shma gidronimlarga *Sho'roxonyop*, *Bo'zyop* kabilar kiradi.

## **Foydanilgan adabiyotlar:**

1. Мурзаев Э.М. Основные направлений топонимических исследований. В кн. «Принципы топонимики». -М.; 1964.
2. Nafasov T. Janubiy O'zbekiston toponimiyasining etnolingvistik analizi. T.; 1985.
3. X.Abdunazarova "Gidronimlar va ularning nomlanish xususiyatlari" –Jizzax; 2013
4. Мурзаев Э.М. Топонимика - популярная. -М.; 1973.

